

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.Q.Qayumova, X.M.Komilova	
Turkiston Qum baliği Gobio lepidolaemus (K.Kessler1872)ning morfometrik xususiyatlarining qiyosiy tahliliga oid	103
U.I.Obidjanov	
Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning ayrim masalalari.....	108
E.X.Najmiddinov, M.A.Muxammadiyev	
Baliqlarning gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmint preparatlarni qo'lash usullari	112
M.M.Mirzaxalilov	
Shahrixonsoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ining (Iskandaria kuschakewitschi) ba'zi morfobiologik ko'rsatkichlari	115
N.B.Ikramov	
Shimoliy Farg'ona kanali algoflora taksonlarining mavsumiy dinamikasi	119

GEOGRAFIYA

M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari	126
O.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	133
M.R.Atabayeva	
O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida "Ichki suvlari va suv boyliklari" mavzusini interfaol o'rganishda klaster usulidan foydalanishning ahamiyati	139
O.I.Abdug'aniev, T.D.Komilova	
Tabiat xilma-xilligi: nazariy asoslari, yondashuvlar va o'rganish usullari	144
P.R.Qurbonov	
O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari	150

ILMIY AXBOROT

Q.B.Baratov	
Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	158
A.N.Qosimov	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmuni	166
J.V.Solijonov	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkur rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	172
A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot usullari xususida	175
I.Aldashev	
O'quv jarayoniga media ta'limning integratsiyasi	182
I.R.Asqarov, G.A.Mo'minova	
Dalachoy tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash va ularning organizmga ta'siri	188
F.O'.Toshboltayev	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli	194
A.N.Meliboyev	
Inson oliy qadriyat tamoyili asosida jamiyatda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarining kelgusidagi vazifalari	199
I.A.Suvanov	
Global o'zgarishlar jarayonida AQShning mafkuraviy taraqqiyot yo'li va uning o'ziga xosligi	205
G.R.Mamadaliyeva	
Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni	211
M.O.Habibullaev	
Korrupsiyani vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillari va unga qarshi kurashning mexanizmlari	219
F.T.Raximova, S.S.Usmanova	
Minimal matnlarning kognitiv tahlili	222

INSON OLIY QADRIYAT TAMOYILI ASOSIDA JAMIYATDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH CHORA-TADBIRLARINING KELGUSIDAGI VAZIFALARI**БУДУЩИЕ ЗАДАЧИ МЕР ПО СОКРАЩЕНИЮ БЕДНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПА ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЦЕННОСТИ****FUTURE TASKS OF MEASURES TO REDUCE POVERTY IN SOCIETY BASED ON THE PRINCIPLE OF HUMAN VALUE****A.N.Meliboyev¹****¹A.N.Meliboyev**

– Qo'qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda inson oliy qadriyat tamoyili asosida jamiyatda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarining kelgusidagi vazifalari aniq misollar asosida ochib berilib, davlatimiz fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashning ijtimoiy falsafiy tahlili yoritilgan. Shuningdek maqolada kambag'allikka qarshi kurashning dasturiy asoslari keltirilgan.

Аннотация

В данной статье на конкретных примерах и социально-философском анализе обеспечения мирной и безопасной жизни гражданина нашей страны раскрываются будущие задачи мероприятий по снижению бедности в обществе на основе принципа человеческого достоинства в Новом Узбекистане. выделены его основные права и свободы. В статье также представлены программные основы борьбы с бедностью.

Abstract

In this article, the future tasks of measures to reduce poverty in the society based on the principle of human dignity in New Uzbekistan are revealed based on specific examples, and the social philosophical analysis of ensuring the peaceful and safe life of the citizen of our country, his fundamental rights and freedoms is highlighted. The article also presents the programmatic foundations of the fight against poverty.

Kalit so'zlar: BMT, Yangi O'zbekistonda, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari".

Ключевые слова: ООН, в Новом Узбекистане, Стратегия действий, Стратегия развития, «Железная тетрадь», «Женская тетрадь», «Молодежная тетрадь».

Key words: UN, in New Uzbekistan, Action Strategy, Development Strategy, "Iron Notebook", "Women's Notebook", "Youth Notebook".

KIRISH

Yangi O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari demokratik islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida kelgusi faoliyat uchun «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» degan prinsipni bosh tamoyil etib belgilanganini bildirdi [1]. Shu asosda 2022 yil – «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili» bo'yicha davlat dasturi tayyorlanib, keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgani ta'kidlandi. Bu jarayon 2023yilda izchillik bilan davom ettirilmoqda. Qolaversa, 2023 yil-Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishi esa jamiyatimizda kambag'allikka qarshi kurash strategiyasining aniq dastur asosida belgilangan maqsadlar tomon yo'naltirilayotganligi fikrlarimizning isbotidir. Misol uchun, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash ishlarini yangi pog'onaga olib chiqish bo'yicha videoselektorida ta'kidlanganidek, 1-iyundan boshlab "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi amalga oshirilishi ma'lum qilindi. Shuningdek, dasturga 2023–2024 yillarda jami \$1 mlrd ajratilishi belgilangan. [2] Bu esa kambag'allikka qarshi kurash masalalarining Yangi O'zbekistonda ichki siyosat darajasidagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralayotganligining dalilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shuning uchun aholi turmush farovonligini oshirish va kambag'allikka ta'sir etuvchi omillar, kambag'allikni qisqartirish muammolari yuzasidan uzoq xorijlik iqtisodchi olimlar Dj.Keyns, A.Marshall, D.Rikardo, A.Smit, A.Sen, M.Kremer, A.Banerdji, E.Dyuflo, G.E. Anderson, D.Saks, B. S. Rauntri, A.S. Diton, D. Adjemoglu va D.Robinsonlar [3] ilmiy tadqiqot ishlarining natijalaridan va

AQSh, Xitoy, Germaniya, Singapur, Rossiya kabi xorijiy yetakchi davlatlar tajribalaridan ham samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan. Natijada Yangi O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash yo'nalishida samarali natijalarga erishilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholi turmush sharoitini yaxshilashga, jumladan, aholining ehtiyojmand qatlami bandligini ta'minlash orqali ular uchun doimiy daromad manbayini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2020-2021 yillardagi koronavirus pandemiyasiga qaramasdan, kambag'allikni qisqartirishning ustuvor asoslari ishlab chiqildi, Shu jumladan, ijtimoiy nafaqalar qamrov darajasi kamida ikki marotaba oshirilib, ularni tayinlash jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun avtomatlashtirilgan elektron tizim joriy etildi. Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlami va kambag'allik holatiga tushish xatari yuqori bo'lgan aholi bilan manzilli ishlash mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadida "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari yaratildi.

Bundan tashqari, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bilan shug'ullanadigan mutlaqo yangi tizim – hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari institutlari joriy etildi.

Davlat va jamoatchilik tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamiga yordam ko'rsatish, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda chora-tadbirlar belgilanib qator amaliy islohotlar olib borilgan. Garchi davlat tomonidan har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarining aksari aholini ijtimoiy himoya qilish islohotlariga bag'ishlangan bo'lsa-da, mamlakatda aholining sezilarli qismi kambag'al holatda kun kechirishiga to'g'ri kelgan.

Biroq, 2020 yilgacha aholining kambag'allik darajasi, kambag'allar soni va statistikasi bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lmagan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil boshida Oliy Majlis palatalari va mamlakat aholisiga Murojaatnomasida ilk bor kambag'allik darajasi bo'yicha ma'lumotlar e'lon qilinib, aholining 12-15 foizi yoki 4,5-5 million kishi kambag'allikda kun kechirishi qayd etildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2020-yil 23-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida "...qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazish..." taklifi bilan chiqqani kambag'allikni qisqartirish masalasining naqadar dolzarbligini bildiradi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ro'y bergan tabiiy-texnogen jarayonlar hamda noqulay iqlimning salbiy oqibatlarini koronavirus pandemiyasi sharoitida aholining kambag'al qatlamlari ortishiga sabab bo'ldi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining to'xtab qolganligi natijasida ishsizlikning ortishi, katta miqdordagi doimiy va mavsumiy migratsiyada mehnat qiladigan yurtdoshlarimizning harakati to'silganligi, aholi daromadlarining pasayishi yuqoridagi salbiy omillarning aks ta'siridir [4].

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga qarshi kurashish, bu borada chora-tadbirlar ishlab chiqish va amaliy natijalarga erishishga alohida e'tibor qaratilib, aholini ijtimoiy himoya qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasida izchil hamda samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqilayotgan dasturlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bevosita ehtiyojmand aholiga ko'mak ko'rsatish, ularni kambag'allikdan chiqarish hamda doimiy daromad manbaiga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratishga yo'naltirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha qator vazifalar belgilab olingan. Jumladan, 1-maqсад sifatida 2030-yilgacha kam ta'minlanganlik darajasini ikki barobarga qisqartirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish yo'nalishi 2020-yilda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev: "Biz O'zbekiston ning yangi tarixida ilk bor kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy qarorimizni butun dunyoga ochiq e'lon qildik va uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni boshladik" [5], deya muvaffaqiyatli xalqaro tajribadan kelib chiqib, kambag'allikni qisqartirishning ta'sirchan vositalarini amaliyotga joriy etish, uni

hisoblashning mezon va usullarini hamda uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish kabi qator vazifalar belgilab berildi.

2020-yilning 23-sentyabrida Prezidentimiz tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni Assambleya navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazish taklifi berilgani fikrimizga yaqqol misoldir [6].

2020-yil mamlakat tarixida ilk bor kambag'allik tushunchasi mamlakat barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi jiddiy muammo sifatida e'tirof etilib, mazkur yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Bu borada quyidagilar nazarda tutildi:

Birinchidan, kambag'allik jinoyatchilikning o'sishiga ta'sir qiladi. Jinoyatchilik aholining kam ta'minlangan qatlamlari orasida keng tarqaladi va ular "daromad olish" ning jinoiy shakllariga murojaat qilish ehtimoli katta.

Kambag'allikning ikkinchi salbiy oqibati – turmush darajasi past va daromadlari yuqori bo'lmagan aholi qatlamlarining sog'lig'iga salbiy ta'siri.

Uchinchidan, kambag'allik alkogolizm va giyohvandlikning o'sishiga ham bevosita ta'sir qiladi.

To'rtinchidan, kambag'allikning yuqori darajasi jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sababdir.

Kambag'allikning xavfli oqibatlaridan yana biri bu aholining umumiy ma'lumot darajasi pasayishi.

Kambag'allikning salbiy oqibatlarini e'tiborga olgan holda, mamlakatimizda unga qarshi kurashning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biriga aylandi.

O'rta va uzoq muddatlarda kambag'allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida Jahon banki va BMT taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan birgalikda "2021-2030 yillarga qadar O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" loyihasi ishlab chiqildi.

Hujjatda respublikada kambag'allikni qisqartirish uchun kompleks yondashilib, quyidagi ustuvor yo'nalishlar doirasida chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda [7].

Unga asosan ehtiyojmand aholiga ko'rsatiladigan yordam va xizmatlar turini ko'paytirish hamda sifatini yaxshilash orqali mavjud tizimni yanada takomillashtirish, aholi ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini doimiy takomillashtirib borish orqali kambag'allik darajasini yanada qisqartirish mexanizmlarini joriy etish kabilardir [8].

2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish Strategiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilangan:

Qisqa va o'rta muddatlarda (2021-2025 yy.) – mamlakatda kambag'allik darajasi mezonini ishlab chiqish hamda ushbu mezon bo'yicha ijtimoiy himoya standartlarini belgilash, kambag'allik darajasi bo'yicha statistik ma'lumotlar, metodik va axborot ta'minotini yaratish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarining bevosita kambag'allikni qisqartirish borasidagi qonunchilik bazasini mustahkamlash, pandemiyadan keyingi davrda barqaror iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish, aholining ehtiyojmand qatlami bilan individual va mahallabay ishlash orqali kambag'allikdan chiqarish chora-tadbirlarini amalga oshirish, ehtiyojmand aholiga to'liq avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatish funksiyalarini yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

Uzoq muddatlarda (2026-2030 yy.) – qisqa muddatlarda belgilangan vazifalar ijrosi davom ettirilib ehtiyojmand aholiga ko'rsatiladigan yordam va xizmatlar turini ko'paytirish hamda sifatini yaxshilash orqali tizimni yanada takomillashtirish, davlat va nodavlat tashkilotlarning bevosita kambag'allikni qisqartirish borasidagi faoliyati samaradorligini ta'minlash, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanilmayotgan yangi resurslarni ishga tushirish orqali aholi bandligini oshirishni zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, aholi ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini doimiy takomillashtirib borish orqali kambag'allik darajasini qisqartirish, aholi ehtiyojmand qatlamining sifatli va uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirish hamda sog'liqni saqlash xizmatlaridan to'liq foydalanishiga erishish ko'zda tutiladi.

Ushbu bosqichlarda nazarda tutilgan masalalar doirasida quyidagi maqsadli indikatorlarga erishish belgilangan:

- "ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali kambag'al aholining ijtimoiy himoyasini to'liq shakllantirish, bunda mazkur toifadagi aholini 2025 yilda 85 %gacha, 2030 yilda esa 100 % yordam bilan qamrab olish;

- kambag'al aholining ish bilan bandligiga to'liq erishish, bunda bosqichma-bosqich oshirish orqali yiliga 100 mingdan ortiq ehtiyojmand va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan fuqarolar uchun ish o'rinlarini kvotalash;

- o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan kambag'al aholi qatlamlarining 50 ming nafarini ro'yxatga olish, faoliyatini boshlash, mehnat qurollari sotib olishi va boshqa maqsadlar uchun subsidiyalar ajratish;

- kambag'al aholi qatlamini kasb-hunar, xorijiy til va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish hamda tanlagan yo'nalishi bo'yicha mikroreditlar ajratish orqali faoliyatini boshlashi yordamida 50 ming nafar kambag'al aholi bandligini ta'minlash;

- kambag'al oilalar farzandlarining maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini o'rtacha qamrov darajasidan oshirish, 2025 yilga borib 600 ming, 2030 yilga borib esa 800 ming nafar ehtiyojmand va kam daromadli oilalar farzandlariga o'quv yili boshida bir martalik o'quv qurollari va kiyim-kechaklar sotib olishi uchun yordam pullarini ajratish, ehtiyojmand oilalar farzandlaridan 2 mingdan 5 ming nafarigacha oliy o'quv yurtlarida tahsil olishiga ko'maklashish;

- nogironligi bo'lgan kambag'al oilalar farzandlarining ijtimoiy himoyasi, ta'lim olishi va sog'lig'ini tiklash choralari yanada kuchaytirishga e'tibor qaratish;

- kambag'al aholining sog'liqni saqlash xizmatlaridan 100 % bepul foydalanishiga imkoniyat yaratish, maxsus reyestrlarga kiritilgan ehtiyojmandlardan 5000 nafariga har yili sog'lig'ini tiklash va sog'lomlashtirish maqsadida shifoxonalarga order va sihatgohlarga yo'llanmalar ajratish;

- uy-joyga muhtoj, og'ir turmush sharoitlarida yashayotgan kambag'al aholi qatlamlariga, birinchi galda xotin-qizlarning yiliga 1 500 nafarini uy-joy bilan ta'minlash, 10 ming nafarigacha ijara to'lovlarini qoplab berish, kam daromadli oilalarning 20 ming nafariga arzonlashtirilgan ko'p qavatli uylardan xonadon sotib olishi uchun boshlang'ich badal va subsidiyalar to'lab berish;

- yuqoridagi barcha chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish orqali 2030 yilga borib kambag'allik darajasini ikki barobarga qisqartirish.

2021 yilda kambag'allik va ishsizlikni qisqartirish borasida ko'riladigan qator chora-tadbirlar to'g'risida ma'lum qilindi:

- oilaviy tadbirkorlik dasturlari, ishsiz aholi va yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, xizmat ko'rsatish sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish uchun 13 trillion so'm beriladi;

- paxta va g'alladan bo'shaydigan 200 ming gektar maydonning 80 ming gektari aholiga beriladi;

- meva-sabzavot loyihalariga 100 million dollar va meva-sabzavot klasterlariga 2 trillion so'm resurs yo'naltiriladi;

- aholi bandligini ta'minlashda 500 ming gektardan ziyod tomorqalardan samarali foydalanish uchun kelgusi yilda 100 million dollar yo'naltiriladi;

- aholi tomorqasida dehqonchilikni yo'lga qo'yish uchun banklar tomonidan 7 foiz stavkada imtiyozli kreditlar beriladi.

Hokim yordamchilari bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib, tomorqasi bo'lgan xonadonlarda 100 ta parranda, 20 ta quyon, 5-6 ta qo'y va echki, kamida 5-10 ta kurka, 5 ta asalari uyalari boqilishini tashkil etishga ko'maklashishi lozimligi ko'rsatib o'tildi [9].

Kelgusi o'n yillikda kambag'allikni qisqartirish sohasida yanada ijobiy natijalarga erishish uchun yana quyidagilarga alohida e'tibor berishimiz zarur:

- barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 2030 yilgacha kambag'allik darajasini 2,0 marta kamaytirish;

- kelgusi o'n yilda kambag'al oilalardagi ishsizlarni tadbirkorlikka jalb etgan holda, 500 ming yangi ish joylarini tashkil etish, ishsizlik darajasini 2,0 marta qisqartirish;

- 2030 yilgacha kambag'al oilalarni 600 mingta kvartiralar bilan imtiyozli asosda ta'minlash, uy sharoitlarini yaxshilash uchun imkoniyat yaratish.

- Kambag'al oilalardagi bolalarni maktabgacha tarbiyalash muassasalaridagi qamrovini 2020-yildagi 10 foizdan 2030-yilda 30 foizga ko'paytirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy

sohalarda aholini, jumladan, kambag'al oilalarni minimal iste'mol standartlarini davlat tomonidan to'liq ta'minotini ta'minlash;

- Kam ta'minlangan oilalarning dehqonchilik qilishi uchun har yili 30,0 ming gektar qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlarini ajratib berish, tomorqa xo'jaligidan samarali foydalanish uchun qulay sharoit yaratish;

- 2030 yilgacha barcha muhtoj kambag'al oilalarni maqsadli va samarali ijtimoiy himoyasini amalga oshirish [10].

Iqtisodiy strategiyaning muhim bandi 2030 yilga qadar munosib haq to'lanadigan 10 millionta yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni bartaraf etish, ishsizlik darajasini 2030 yilda 5,2 foizga, inflyatsiyani esa 15,2 foizdan 4,3 foizga pasaytirishga erishishdir.

Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Aholining turmush darajasini oshirish va mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvorligi sifatida ishsizlik darajasini pasaytirishga e'tiborni kuchaytirish lozim;

- Nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda odamlarimizni tadbirkorlikka o'qitishning eng ilg'or dasturlarini ishlab chiqish va kasbga o'qitishda nodavlat tashkilotlarning faolligini kuchaytirish;

- Fuqarolarning oilaviy byudjeti daromadlarini oshirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida kasanachilik mehnatini rivojlantirish kerak;

- Ishga joylashishga muhtoj shaxslarga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini kengaytirish, bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda maqbul shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan choralar ko'rish;

- Aholining real pul daromadlari va xarid layoqatini oshirish, buning uchun ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarni inflyatsiya sur'atlaridan oshadigan miqdorda oshirish.

- Kambag'allikdan chiqarish uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlardan va aholi tomorqalaridan maqsadli, samarali foydalanishda mikroklaster tuzilmalarini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

- Iqtisodiyot tarmoqlarining aholi turmush darajasini oshirishga ta'sirini chuqur o'rganish, bu borada ko'proq ilmiy tadqiqotlar olib borish;

- Aholining ish bilan bandlik darajasini va daromad topish imkoniyatlarini oshirish;

- Aholining iste'mol talabi bilan ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlar hajmini muvofiqlashtirish;

- Mamlakatimizda aholining yashash sharoitlari va standartlarini yanada yuqori darajaga ko'tarish;

- Aholining munosib turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan infrastrukturani jadal rivojlantirish va boshqalar [11].

Kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak. Shu maqsadda, mahallalarda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlariga, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga subsidiyalar beriladi [12].

Umuman olib aytganda, bugun mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bu boradagi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Bu borada ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy sohalarning hamkorlikdagi faoliyati hamda amalga oshirilayotgan ishlarning shaffofligini ta'minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa shuki, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimiz osoyishtaligi va ular baxt-u iqboli, saodatli hayotini ta'minlashdek ezgu maqsadlar singdirilgan. Zero, Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan bunday sa'y-harakatlar Yangi O'zbekiston aholisi uchun ana shunday farovon hayotga keng yo'l ochishiga ishonamiz. Shu o'rinda jamiyatimizning har bir ongli fuqarosi bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan zamonaviy islohotlarning mazmun, mohiyatini chuqur anglagan holda mas'uliyat bilan qarshi olsa samaradorligi yanada natijaliroq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Тараққийёт стратегияси” маркази: Ҳаракатлар стратегияси ва тараққийёт стратегияси: фарқли жиҳатлари нимада? 02 Фев. 2022 й. <https://strategy.uz/index.php?news=1475>
2. Prezident kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangi ko‘rsatmalar berdi. <https://www.spot.uz/oz/2023/05/15/poverty-reduction>
3. Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — N.Y.: BN Publishing, 2008. - 296p.; Маршал А. Основы экономической науки. / Пер. с англ. — М.: Эксмо, 2007 г. -832 с.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. / Пер. с англ. — М.: Эксмо, 2016 г. -1040 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Пер. с англ. — М.: Эксмо, 2016 г. -1056 с.; Сен А. К.Свобода, единогласие и права. Том 4. Экономика благосостояния и общественный выбор. Под общ. ред. Заостровцева А. П. — СПб: Экономическая школа. 2004. (англ. Liberty, unanimity and rights, 1976); Сен А. Идея справедливости — М: Изд-во Института Гайдара; Фонд «Либеральная Миссия», 2016. — 520 с.; <https://nplus1.ru/material/2019/10/14/nobeconomic>; Эспинг-Андерсен, Гёст (1990). Три мира благосостояния капитализма. — Принстон, Нью — Джерси: Princeton University Press. ISBN 9780069028573; Сакс. Д. Конец бедности: экономические возможности нашего времени. — М.: издательство Института Гайдара, 2011. — 424 с. (англ. The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time, 2005); Раунтри Б.С. Бедность: Исследование городской жизни. Нью-Йорк, 1901 г, с-437, Дитон. А. Великий побег: Здоровье, богатство и истоки неравенства. — М.: Изд-во Института Гайдара; Фонд «Либеральная Миссия», 2016. — 368 с; Аджемоглу Д. Почему одни страны богатые, а другие бедные. происхождение власти, процветания и нищеты: АСТ. М.: 2015. — 1083 с;
4. 2021-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасида камбағалликни қисқартириш стратегияси. <https://regulation.gov.uz/ru/d/30230>
5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. — Б. 51
6. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш бўйича ишлар қандай натижа бермоқда? <https://uza.uz/uz/posts/>
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. — Б. 440.
8. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш бўйича ишлар қандай натижа бермоқда? <https://uza.uz/uz/posts/>
9. Президент камбағаллик ва ишсизликни қисқартириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида маълум қилди. <https://aniq.uz/yanqiliklar/>
10. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. — Б. 441-442.
11. Рустамов Н.И. Аҳоли турмуш даражаси ва ўзбекистонда уни ошириш имкониятлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2015. — Б. 1-9.
12. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. — Б. 145.